

TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI

*Irgasheva Marjona Marat qizi - BuxDPI
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi,
Hayitova Feruza - Buxoro shahar
17-maktab o'qituvchisi,
D.N.Xayrullayeva -BuxDPI o'qituvchisi*

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar kundan kunga oshib bormoqda. O'z navbatida hukumatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirishda PISA, TIMSS va PIRLS singari xalqaro tadqiqotlarning joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritimiz.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro tadqiqotlar.

Annotation: The requirements for modern education are growing day by day. In turn, the introduction of international research by PISA, TIMSS and PIRLS by our government is important in improving the quality of education. We will talk about this in this article.

Keywords: education system, PISA, TIMSS, PIRLS international research. Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro tadqiqotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Prezidentimizning farmoni bilan “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan. Xalq ta'limi muassasalari ilg'or jahon tajribasiga tayanib, ta'lim sifatini takomillashtiradilar. Respublikaning quyidagilarda ishtirok etishi bunda yordam beradi:

- PISA o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (15–16 yashar o'quvchilarning matematik savodxonligi, o'qish va tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini baholash);

- TIMSS maktabdagi matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta’lim sifatining xalqaro tadqiqotida (4 va 8-sinflar o’quvchilarining matematika va tabiiy fanlar sohasidagi savodxonligini baholash);
- PIRLS matnini o’qish va tushunish sifatining xalqaro tadqiqotida (boshlang’ich maktab o’quvchilarining matnini o’qish hamda tushunish darajasi va sifatini baholash).

Bundan tashqari, mamlakatimiz TALIS o’qitish va o’qish tizimining xalqaro tadqiqotida (o’qituvchilarning mehnat sharoiti va maktablardagi ta’lim muhitini baholash) qatnashadi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz TALIS o’qitish va o’qish tizimining xalqaro tadqiqotida (o’qituvchilarning mehnat sharoiti va maktablardagi ta’lim muhitini baholash) qatnashadi.

Ushbu masalalarni hal etishda umumta’lim muassasalarida shu jumladan quyidagi usullar orqali chet tillarni o’qitishni kengaytirish loyihasiga tayanadilar:

- rus, ingliz, frantsuz, nemis va boshqa tillarga o’rgatadigan maktablar ochish;
- malakali mutaxassislarni tayyorlash va xorijdan jalb etish;
- zamonaviy talablarga javob beruvchi chet tillardagi darsliklarni nashr etish.

Ta’lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o’quvchilarning o’quv yutuqlarini ob’ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o’quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o’rta ta’lim darajasida muhim ahamiyatga ega. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8 dekabrda 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” qarori bilan xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o’rnatish, o’quvchilarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g’oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo’llabquvvatlash hamda rag’batlantirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo’nalishlaridan etib:

- umumiy o’rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;
- O’zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
- xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo’yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg’or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo’llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar belgilandi.

Quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi:

PISA - The Programme for International Student Assessment — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

TIMSS - Trends in International Mathematics and Science Study— 4 va 8sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study— boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TALIS - The Teaching and Learning International Survey— rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchitreneerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

PISA tadqiqotlari PISA (Programme for International Student Assessment) o'quvchilar bilimni baholash xalqaro dasturi, 15 yoshli bolalarning matematika, tabiiy fanlar va ona tilidan hayotiy ko'nikmalarni egallaganligini o'rganishga qaratilgan tadqiqot. PISA tadqiqotlari 2000-yildan boshlangan va har uch-yilda o'tkaziladi. Tadqiqot natijalari ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilari ta'lim yutuqlari, ta'lim tizimida o'zgarishlar, o'rta ta'lim islohotining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish va ularning amalga oshirish uchun to'siqlarni aniqlash, natijalarning o'zgarish dinamikasini kuzatish va tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi. Xalqaro PISA tadqiqotlarining maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha hamda ona tili bo'yicha savodxonligini baholashdan iborat. Tadqiqot maktab o'quv dasturlarini ishlab chiqish darajasini belgilashga emas, balki o'quvchilar hayot sharoitida o'qitish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyatini baholashga qaratilgan.

Shu bilan birga, tadqiqot ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilarining natijalaridagi farqlarni tushuntiruvchi omillarni o'rganadi. PISA tadqiqoti baholash topshiriqlari to'plami quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- test topshiriqlari to'plami; ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun so'rovnomalar;
- ta'lim tashkilotlarini boshqarish uchun so'rovnomalar; test yoki so'rov o'tkazadigan shaxs uchun qo'llanma; ta'limni tashkil etish koordinatori uchun qo'llanma;
- test topshiriqlarini, ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash va baholash bo'yicha qo'llanma.

Tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish natijasida har bir o'quvchi 1000 balli tizimda quyidagi me'zonlar bo'yicha baholanadi:

- kundalik turmushda yuzaga keladigan real muammolarni aniqlash va ularni matematikadan foydalanib hal qilish;
- muammolarni matematika tilida ifodalash;
- muammolarni matematik bilimlar va usullarni qo'llash orqali hal qilish;
- ishlatilgan usullarni tahlil qilish;
- muammoning yechimini tushuntirish;
- hal etish natijalarini shakllantirish va qayd etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.Ped